ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA FIKR VA TUYG'U UYG'UNLIGI

Kirgizova Gulnoza Mamadaliyevna,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Yuksak iste'dod sohiblari so'zni boshqara biladilar. Chunki ular har bir so'zning mazmun va mohiyatini chuqur anglaganlari holda qo'llaydilar. O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ana shunday ijodkorlardandir. Uning she'rlarida fikr va tuyg'u mushtaraklikda yuz ko'rsatadi. Biri ikkinchisini taqozo etgan holda she'riy matnning jozibadorligini ta'minlaydi.

Iqbol Mirzo she'rlarida jamiyatning dolzarb masalalariga munosabat bildiradi. Zero, "Shoir qancha yuksak bo'lsa, u o'z jamiyatiga shu qadar ko'zdek mansub bo'ladi, iste'dodning kamol topishi, yo'nalishi, hatto xarakteri ham jamiyat tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'lanib ketadi"[1].

Ma'lumki, til millatning o'lmasligidan nishona. Shu bois ham mustamlakachilar avvalo bosib olgan yurtining tilini buzib, yo'qotishga harakat qilganlar. Iqbol Mirzoning "Robinzon Kruzo" she'ri kimsasiz orolga tushib qolgan kimsaning kechinma va fikrlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ingliz adibi Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo" romanidagi ushbu shaxs kimsasiz orolda uzoq vaqt yolg'iz yashagan va uning sarguzashtlari yosh kitobxonlarni befarq qoldirmagan. Ijroviy lirikaning o'ziga xos namunasi bo'lgan ushbu she'rda Iqbol Mirzo davrning muhim mavzusi bo'lgan ona tilini asrash g'oyasini tarannum etadi. XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida sho'ro mafkurasi bir xalqning hukmronligi va oxir-oqibat dunyoda bir tilning qolishi haqidagi "aqida"larni singdirishga urinayotgan davrda shoir tilni yot ta'sirlardan asrash, uning sofligini saqlashga chaqiruvchi asarlar yaratdi. "Robinzon Kruzo" she'rining dastlabki bandida asar qahramoni Kruzo ba'zan "o'y surmoq va muhabbat dardini tanho yutmoq" uchun do'st-yorlar davrasidan tanholikni, yolg'izlikni xohlab qolishini ta'kidlarkan, o'sha imkon bo'lib, to'rt taraf ulkan bo'lgan orolda ko'zlari uzoqqa termulib, hatto dushmanining achchiq so'zlarini bayon etadi. Hech kim yo'q – kimsasiz, yovvoyi ochun, O'tlar shitirlaydi, yugurar ilon. Qahramon "tilli soqov" bo'lib qolmasligi uchun ilonlar bilan suhbat quradi, rango-rang qushlarga so'z qotadi, maysalarga so'zlaydi, tunlar esa poxol bolishga bosh qo'yarkan, o'z-o'zi bilan suhbatlashadi. She'rning "Yo'q, meni tashvishga solmaydi ochlik, Yirtqichlar hujumi ezmas dilimni. Men uchun faqat bir narsa qo'rqinchli – Dahshat – unutmoqlik ona tilimni"[2] satrlari o'zida millatning jonkuyar farzandi kechinmalari ifodasini topadi.

So'nggi satrlar insonparvarlikni tarannum etuvchi fikrlar bilan yakunlanadi:

Roziman, qolgandan ko'ra bezabon
Vahshatlar go'shtimni g'ajib tashlasin.
Kimsasiz orolda men yolg'iz – inson,
Kimsasiz orolda ... yashasin inson.

So'zning fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'rnini teran anglagan Iqbol Mirzo uning she'riyat kontekstidagi muhim o'rnini yuzaga chiqaradi. Yan Parandovskiy yozganidek, "So'z vositasida Inson zamon va makonni egallab o'ziga bo'ysundiradi, So'z narsa, buyum, ashyolarni hodisalar chalkashligidan xalos etib, ularga shakl va rang berdi, yaqin yoki uzoqlashtirdi, o'lchadi, chamaladi"[3][3, 198].

Shoirning "Bu odam"(1988) she'ri oson bo'lmagan o'zgalar uchun "pillapoya" bo'lish vazifasini bajarayotgan "yelkasi yag'ir, qo'li qadoq" odam tasviri bilan boshlanadi. U hissiz emas, oshiq bo'lib, dalasini, kuzni, paxtasini, ulardan ham ortiq "shukur" degan so'zni sevuvchi dehqondir. Yoriq lablariga ushbu so'zni "muhr, tabarruk oyat" deya bilgan dehqon kimdur "tuproqtegi" qilsa-da, hech qachon shikoyat qilmaydi. U Sug'diyonani ham, Gegelni ham bilmaydi. Raxshonani izlamagan, unga she'r to'qimagan. She'r quyidagi satrlar bilan yakunlanadi:

Toshkent qayda? Farg'ona qayda?
U ko'rmagan. Jilmayar siniq.
Qanday odam o'zi? Qaydam ...
O'zimizning odam bu aniq[4].

Iqbol Mirzo she'rlarida Vatan tasviri go'zalligi, betakror kishilari, yovqur sarkardalari, ulug'vor tarixi bi-

[1] Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 116.

[2] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 14.

[3] Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 198.

[4] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 32.

lan namoyon bo‘ladi. Uning “Dashtda”(1988) she’rida har bahor piyoz ekkani ekkan uch og‘a-inilarning biri – lirik qahramon kechinmalari ifodasini topgan. Xudoyorxon “Qarg‘ish tekkan yer bu!” degan joydan bir vaqtlar oh urib GO‘RO‘G‘LI, OT SURIB Namoz o‘tgan. Uch og‘a-ini dardi qorin to‘ydirish. Ushbu holatni lirik qahramon quyidagicha izohlaydi:

Tirikchilik ...
O‘zingizga ma’lum buyog‘i,
Rizqi ro‘z degani –
titilgan to‘rva.
Do‘konda falon pul paxta yog‘i ...
Piyoz bo‘lsa,
Qozonda sho‘rva[1].

Shoir mustamlaka siyosati oqibatida qashshoqlashgan, qorin g‘amidan boshqani xayoliga keltirmaydigan avlod fojiasini ifodalaydi.

Bu yerni suv o‘gay singil sanaydi,
Shaboda yurmaydi –
tiladi tikan.
Men akamga,
Bolam qo‘lga qaraydi ...
Piyoz ekkanimiz
ekkan
Bu yerdan ot solib o‘tmaydi Namoz[2] ...

Shoir xulosasi shunday: faqat naf haqida o‘ylaydigan xalq ozodlik, erk haqida o‘ylamaydi. Mustamlakachilarning ham niyati shunday: bosib olingan yurt hech qachon bosh ko‘tarmasin. Uning odamlari, hatto bolasigacha qashshoqlikda yashab, biri-ikki bo‘lmay, faqat qorin qayg‘usida yashasin.

Iqbol Mirzo she’rlari mavzu jihatidan rang-barang. U olis, beg‘ubor, unutilmas bolalikdan tortib ilk muhabbatning musaffo kechinmalarini qamrab oladi. “Ketgim kelyapti”(1988) she’rida lirik “men” bolaligi kechgan maskanda tug‘ilan tuyg‘u-kechinmalarini ifodalaydi. “Terakning shohida olmadayin oy”ni, shabbodada taralgan rayhon bo‘ylari” hamda “ko‘ylakning men bilmas chechaklari”ni, “yulduz sanayotgan yolg‘iz qizni” tashlab ketolmayotganini ta’kidlaydi. She’r quyidagi lirik “men”ning achchiq iqrori bilan yakunlanadi:

Hozir so‘fi – xo‘roz qichqirar birdan,
Men hanuz bir gapni aytaveraman.
Bolaligim yig‘lab o‘tirgan yerdan
“Ketdim ... ketgim ...” deya
ketaveraman.
Ketgim kelyapti[3].

Shoirning “Vereshchagin” she’ri qahramoni tarixiy shaxs. U chor Rossiyasi askarlari bilan Turkistonga kelgan va urush manzaralarini asl holat asosida chizgan rassom. Chor Rossiyasining bosqinchiligini batamom qo‘llash, millatchi qiyofasida o‘z asarlari – kartinalarda ko‘zga tashlanadi. She’rdagi tasvir V.V.Vereshchagin tomonidan bayon etiladi.

Mo‘yqalamning qili –
Turkiyning sochi ...
tunni chizdim
sart ko‘ziga botirib,
Qirmiz gullar soldim
Qirg‘iz xunin sochib,
Musavvirlarga ranglar kerak,
olg‘a,
botirim![4]

She’r davomida V.V.Vereshchaginning bosqinchilarga xos qiyofasi yanada yorqin namoyon bo‘la boradi. “Osmon ulkan do‘ppi bo‘lgan”, “Zamin - joynamoz”ga aylangan nutqning qadrini qadrsiz, davr kelganda toptashga, bosib olishga, insoniylikka tupirishga chaqirgan ushbu korchalon qarashlari o‘sha davrning barcha chor amaldorlari uchun xos edi. “Musavvirga ranglar kerak, olg‘a botirim!” deya shafqatsizlikka boshqalarni undayotgan Vereshchagin uchun Peterburgdagi xonimlarning ko‘ngil xushligi kerak.

Shafqat qilma,
yashashga behuquq go‘dak
Hozirdanoq tayyor bizni tinglashga ...
Rossiyaga rangin suvratlar kerak,
Hech bo‘lmasa,
Xonimlar ko‘nglin xushlashga[5].

“Maqolga izoh”(1988) she’ri o‘z davrining tobora kichrayotib borayotgan ko‘li Orol haqida. She’rda ikki qarama-qarshi fikr – maqoldagi haqiqat bilan hayot haqiqati yonma-yon izohlash orqali davr muammosi qalamga olinadi. Natijada fikr va tuyg‘uning o‘ziga xos talqini

“Ko‘k tupursa, ko‘l bo‘lur”(maqol).
Tushunarsiz bo‘lsa qay cho‘lga,
Menga misol: tupurdik Orol
Aylanmoqda mo‘jaz bu ko‘lga

tarzida namoyon bo‘ladi. Hozirda butkul qurib

[1] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 42.
[2] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 42-43.
[3] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 48.
[4] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 52.
[5] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 53.

bitgan Orolga sho‘ro davridagi nopisand munosabat, olti million tonnalik paxtani markazga yetkazib berishga behuda urinishlarning oqibatlari haqida fikr yuritarkan, shoir fikr va tuyg‘uning o‘ziga xos uyg‘unligini yuzaga keltiradi.

Iqbol Mirzoning O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodidan ta’sirlanib yozgan “Chiroq”(1991) she’ri insoniy mehr, uning jamiyatdagi o‘rni haqida. “Dilda mudroq, vujudda charchoq” bilan oqshom yoki tunda yashash manziliga qaytayotgan shaxsga o‘z derazasida porlagan chiroq qadamini yana tezlatishi sabab bo‘ladi. Shoir bu holni shunday izohlaydi: “Demak, seni kutayotgan bor, Bor bo‘l, deysan kulib, demak, sen. Yani nima kerak birodar, Axir sen kimgadur keraksan”[1].

Shoir fikricha, derazadan porlagan chiroq yo‘lchi yulduzning borligidan, kechalarning oqligi, kunduzlari xotirjamligidan nishona. She’rning lirik “men”i shunday qarorga keladi:

Men adashib – uloqib toldin,
Qachongacha o‘tsiz kezaman?
Endi eshik qulflashdan oldin
Chiroqlarni yoqib qo‘yaman.

Yuqoridagi “o‘tsiz kuymoq , “eshik qulflamoq”, “chiroq yoqmoq” metaforik iboralari “yolg‘izlik, o‘lim, mehr” kabi ma’nolarini ifodalab fikr va tuyg‘uning mushtarak ifodasini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she’rlarida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi ifoda ravonligida, tasvir jonliligda, obrazlar hayotiyligida, satrlar ohangdorligida ko‘zga tashlanadi.

Rezyume: Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning fikr va tuyg‘u uyg‘unligini ta’minlashdagi she’riy mahorati yoritilgan, fikrning aniq va lo‘nda ifodasi, nozik kechinmalar talqinidagi shoir uslubi tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: She’riyat, fikr va tuyg‘u, mahorat.

Resume: The article analyzed the poetic skill of Uzbekistan’s national poet Iqbol Mirzo, highlighting his ability to convey thought and emotion, the clarity and persuasiveness of expression, and the poetic style in describing moments of tender lyricism.
Keywords: Poetry, thought and feeling, skill.

Резюме*:* В статье проанализировано поэтическое мастерство народного поэта Узбекистана Икбола Мирзо, выявлена его способность обогатить мысль и эмоциональную глубину, четкость и убедительность выражения, поэтический стиль в описании мгновений нежной лирики.
Ключевые слова*:* Поэзия, мысль и чувство, мастерство.

[1] Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.... Биринчи жилд. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – Б. 117.